


XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2024-yilning yanvar-iyun oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarining o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 446,5 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 117,6 % ga oshdi.

O'rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2 207 ta korxona va tashkilotlarda tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming so‘m
 (2024- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)



SANOAT SOHASIDA




QURILISH SOHASIDA




SAVDO SOHASIDA





TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA




AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA





BANK, SUG‘URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA



TA’LIM SOHASIDA



SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR SOHASIDA



2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqininig iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlili:
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sanoat sohasidagi 70 ta korxona va tashkilotlarda 50,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 22,1 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 1 899,1 mld so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 31,7 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 6 298,1 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,6 % ga o‘sdi.

Qurilish faoliyat turidagi 27 ta korxonada 1,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 40,7 mld so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 167,1 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 46,7 % ga o‘sdi.



Savdo faoliyat turidagi 23 ta korxonada 1,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,8 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 46,2 mld so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 901,8 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga o‘sdi.

Tashish va saqlash faoliyat turidagi 11 ta korxonada 0,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 24,6 mld so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 5 006,8 ming so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 21,9 % ga o‘sdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

sohasidagi 3 ta korxonada 0,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2,6 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,04 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 110,6 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 63,9 % ga pasaygan.



Axborot va aloqa sohasidagi 8 ta korxonada

0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 45,3 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 8 147,0 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga o'sdi.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik

iqtisodiy faoliyat turidagi 25 ta korxonada 3,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 335,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 13 312,2 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 19,6 % ga o'sdi.



Ta'lim sohasi iqtisodiy faoliyat turidagi

1512 ta korxonada 96,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 42,6 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1 971,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 32,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 418,6 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga o'sdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi dagi 71 ta korxonada 45,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,9 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 935,0 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 15,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 405,1 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 13,9 % ga o‘sdi.




San’at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasidagi 70 ta korxonada 2,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 38,3 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 080,8 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga o‘sdi.

Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi 387 ta korxonada 23,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 654,2 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 10,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 583,4 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga o‘sdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng yuqori o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 13 312,2 ming so‘mni tashkil etdi. Shuningdek yuqori ko‘rsatkichlar sanoat faoliyat turida (6 298,1 ming so‘m) hamda axborot va aloqa faoliyat turida (8 147,0 ming so‘m) kuzatildi. Eng past ko‘rsatkich esa Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar faoliyat turida kuzatildi va 2 110,6 ming so‘mni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (7 397,0 ming so‘m), Andijon shahrida (5 682,7 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati
(2024- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023-2024- yillardal; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2023- yil	2024- yil	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
Andijon viloyati	3 780,8	4 446,5	117,6
<i>Shaharlar</i>			
Andijon sh.	4 806,0	5 682,7	118,2
Xonobod sh.	3 689,8	4 240,1	114,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko‘l	3 050,9	3 081,2	101,0
Andijon	2 844,7	3 132,7	110,1
Baliqchi	2 525,7	2 664,2	105,5
Bo‘ston	2 398,9	2 689,7	112,1
Buloqboshi	2 511,9	2 805,3	111,7
Jalaquduq	2 751,3	2 962,1	107,7
Izboskan	3 294,3	4 119,7	125,1
Ulug‘nor	2 486,9	2 780,7	111,8
Qo‘rg‘ontepa	2 923,5	3 350,3	114,6
Asaka	5 745,6	7 397,0	128,7
Marhamat	2 853,8	3 073,5	107,7
Shahrixon	2 630,6	3 309,5	125,8
Paxtaobod	3 089,2	3 391,8	109,8
Xo‘jaobod	2 503,7	2 763,5	110,4


**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining
viloyat ko'rsatkichiga nisbati foizda**
(2024- yil yanvar-iyun oylarida, qishloq xo'jaligi
va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (7 397,0 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 166,4 % ga yuqori), Andijon shahri (5 682,7 ming so'm 127,8 % ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Bo'ston tumani 2 689,7 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 60,5 % ga past) va Baliqchi tumani (2 664,2 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 59,9 % ga past)da kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2023 yil Iyun oyidan **1 050 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023- yil 23-noyabrdagi Q 65-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilda bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqtি- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqt davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqt deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darjasini vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.